

O`SMIRLAR XULQ-ATVORIGA HAYOTIY MAQSADLARNING TA`SIRI

Saparova Sabohat Polvonnazarovna

“Oila va xotin-qizlar” ITI kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqola shaxsning hayotiy strategiyasi ya`ni hayot maqsadlari, qadriyatlarini hamda ayni vaqtda hayotda o`z o`rnini anglaganligi uning hayot tarziga, xulq-atvoriga qanday ta`sir etishi haqida xorij olimlarining fikr-mulohazalari ko`rsatilgan. Shuningdek, o`smirlik davrida hayotiy maqsadlar mazmunining aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalari tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье показаны мнения зарубежных ученых о жизненной стратегии человека, то есть его жизненных целях, ценностях, и в то же время понимание своего места в жизни влияет на его образ жизни и поведение. Также были проанализированы результаты исследований, направленных на определение содержания жизненных целей в подростковом возрасте.

Annotation: This article shows the opinions of foreign scientists about the life strategy of a person, that is, his life goals, values, and at the same time understanding of his place in life affects his lifestyle and behavior. Also, the results of research aimed at determining the content of life goals in adolescence were analyzed.

KIRISH

Ma'lumki, hozirgi kunda jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat yetarlicha barqaror bo'lmagani sababli, shaxsiy hayot yo'lini loyihalash va rejalashtirish masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Hozirgi kun yoshlari tezroq hayot yo'lini "muallif"lariga aylansalar, o'z imkoniyatlarini shunchalar tez ro'yobga chiqaradilar. Fikrimizcha, o'zini o'zi anglashning muhim qismi o'z vaqtida hayotiy strategiyasini shakllanishidir. Bu boradagi tadqiqotlarning tahlillari shuni ko'rsatadiki, mualliflar muammoni bir tomondan emas balki uni turli jihatlarini o'rganishga muvaffaq bo'ldi. Xususan, hayot yo'li muammo sifatida (B.G.Ananov, B.Byuler, S.L.Rubinshteyn); vaqtinchalik kelajak tarkibi sifatida (Bekasov, Golovaxa, Kovaler, Kronik); hayot kelajagini urilishi sifatida (Kastenbaum, Levin, Nyutten, Frank); hayotiy usulini tanlash sifatida (Alfred Adler, Erix Fromm); hayotiy variantini tanlash (Drujinin); hayotiy strategiyani shakllantirish sifatida (Abulxanova-Slavskaya, Demchenkova, Peznik) va boshqalar.

Shuningdek, shaxsda hayotiy strategiyalarni shakllanishi va rivojlanishi nuqtai nazaridan quyidagi fikrlarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1.Shaxs hayotiy strategiyasi- boshqa hayot yo'llaridan farqli ravishda - bu o'z hayotini, kelajagini bosqichma-bosqich shakllantirishning ongli ravishda rejalashtirishga urinish.

2. Shaxsning hayotiy strategiyasi - bu bir-biri bilan bog'langan, ikki yo'nalishda aks ettirish mumkin bo'lgan elementlardan iborat bo'lgan tizim.

Shu nuqtai nazardan olganda, bir tomondan bu kelajak hayot yo'lining mundariyasi sifatida gavdalanadi. U insonning hayotdagi o'rnini tanlash va hayotiy qadriyatlarini anglab yetish darajasi bilan belgilanadi.

Boshqa tomondan hayotiy strategiyasini shakllanganligi uning chegaralarini ifodalovchi uyushgan tavsifnoma sifatida aytish mumkin. Bu vaqt davomiyligining imkoniyati bo'lib, natijada psixologik, o'rin egallash, hayotiy rejalarini rejalashtirish va tartiblashtirish kabi qator omillarni o'zida mujassam etadi.

Shunday qilib, shaxsning hayotiy strategiyasi unda ichki shakllanuvchi jarayon hisoblanadi. Biz uni hayot maqsadlari, qadriyatlari hamda ayni vaqtda hayotda o'z o'rnini anglagan holda shakllangan deya tavsiflashimiz mumkin.

Ta'kidlash joizki, inson sub'ekt sifatida o'z hayotidagi voqea-hodisalarni ularni o'zgarishi, ta'sirini tahlil qiladi hamda shaxsiy imkoniyatlarini baholaydi. U shaxsiy "Men"i chegarasidan chetga chiqa oladi. Tahlil jarayonida hayotidagi o'zgarishlarni taxmin qiladi. Shu bilan birgalikda kelajakni rejalashtirish sodir bo'ladi va natijada shaxsning hayotiy strategiyasi vujudga keladi.

Inson hayot yo'li borasidagi ilmiy tasavvurlar evolyusiyasi jamiyatimizdagi ijtimoiy vaziyatlarni aks ettiradi desak xato qilmaymiz. O'tgan asr 30-yillar o'rtasida hayot yo'li va hayot sub'ekti fikri S.L.Rubinshteyn tomonidan taklif qilingan, ammo undan so'ng uzoq yillar mobaynida bu muammo o'rganilmay qolgan. Mazkur muammoga S.L.Rubinshteyn yana bir bora 50-yillarda e'tiborini qaratgan, ammo bu davrlar uning va jamiyat hayotidagi eng og'ir paytlar bo'lgan.

60-yillarga kelib hayot yo'li borasida B.G.Ananev o'zining tadqiqot ishlarini olib borishga harakat qilgan. Uning qarashlaridagi asosiy tavsifnoma bu insonning yoshi edi. B.G.Ananevning fikricha, aynan inson yoshi hayot yo'lining ijtimoiy va biologik tomonlarini birlashtiradi. Hayot yo'lini o'rganishda u bilish, faoliyat hamda muloqotni ajratadi. Chunki aynan mana shu mezonlar orqali shaxs o'z hayot yo'lini namoyon qiladi hamda uni o'rganish mumkin. B.G.Ananev shaxs ijtimoiy yutuqlari tushunchasini kiritgan va hayot yo'lini bir necha bosqichlarini ajratib ko'rsatgan. Xususan, bolalik (tarbiya, o'qish va rivojlanish), yoshlik (o'qish, ta'lim va muloqot), yetuklik (shaxsning ijtimoiy va kasbiy jihatdan o'zini o'zi topganligi, oila qurish, jamiyat uchun foydali faoliyatni amalga oshirish). B.G.Ananev konsepsiyasida shaxsiy hayotdan ko'ra, ijtimoiy va yosh davrlarini aks ettirishga qaratilgan. Shunday bo'lsa-da uning konsepsiyasi shaxs hayot yo'lini individual tomonlarini o'rganish uchun keyingi tadqiqotlarga tayanch bo'lgan.

Bugungi kunda biz inson hayot yo'lining individual xususiyatlarini ochib berish imkoniga egamiz. Ammo bu uchun nafaqat tashqi omillar ta'sirini o'rganish balki hayot yo'li chizig'ini bilish ham kerak.

Shaxs hayot yo'li davomida o'zgaradi, turli yosh davrlarini bosib o'tadi. Shu bilan birga hayotning individual xarakterini namoyon qiluvchi uning tashkillashtiruvchisiga aylanadi. O'z hayot yo'lini shaxs tomonidan yo'naltirish, tashkillashtirish qobiliyati hayot sub'ekti sifatida yuqori darajaga erishilganlikni namoyon qiladi. Ayrim odamlar

o'z hayot yo'lini qurishda tashqi omillarga ya'ni ijtimoiy-psixologik tendensiyalarga, ayrimlar o'zining ichki imkoniyatlariga, o'z kuchiga, uchinchilar esa tashqi omillar va ichki tendensiyalarni qulay darajada birlashtirishadi, to'rtinchilar doimo ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga urinishadi. Barcha sharoitlarda mazkur tendensiyalar bir insonning nafaqat xarakterini, balki psixik xususiyatlarini ochib beradi.

Yuksak shaxsiy sifatlar ong, faollik, psixologik yetuklik shaxs hayot yo'lida shakllanadi hamda namoyon bo'ladi. Shaxs hayot dinamikasining, jadalligiga undovchi kuchi, hayot yo'lining mazmundorligini quruvchisi sanaladi. Ta'kidlash joizki, hayotdagi ichki xohish, maqsadlar muhim sanaladi. Shuning uchun shaxs ularning mustahkam ekanligi bo'yicha o'ziga o'zi hisobot berishi lozim.


Bu jarayonni o'rganish maqsadida gruzin psixologlari maktabi xodimlari tomonidan tadqiqot ishini amalga oshirishdi. Tadqiqotda bir guruh yoshlarga ularning bo'lajak kasbi haqida tasavvurlar berilgan hamda ular bir qarorga kelgan va oliy ta'limga kirishga nisbatan ustanovkasi paydo bo'lgan. Ikkinchi guruhga ustanovkalar qo'yilmagan, chunki ular o'z kasbi, imkoniyatlari, qobiliyatlarini sust tasavvur qilishgan. Ammo bu ustanovkalar qanchalik kuchli ekanligi hamda u hayotiy xarakterni aniqlash faqatgina institutga kirish imtihonlarini topshirish mobaynidagina kuzatish mumkin bo'lgan. Haqiqatan ham o'z hayotining tashkilotchisi sifatida o'qishga kira olmagan bo'lsa-da yana va yana kirishga harakat qilgan yoshlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Natijada ular o'z ustanovkalarini ruyobga chiqarishga muvaffaq bo'lganlar.

Tadqiqot ishimizning keyingi metodikasi o'smirlarda hayotiy maqsadni aniqlashga qaratilgan bo'lib, buning uchun biz "Hayot maqsadlarining mazmunini tashxislash" metodikasidan foydalandik. Mazkur metodika 20 ta bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlar juftligidan iborat bo'lib, sinaluvchi o'ziga mos keladigan ikkita ta'kiddan birini tanlashi kerak. O'smirlardan ushbu metodika orqali olingan ma'lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi, uning natijalari quyidagi jadval va diagramma shaklida keltirildi:

2-jadval

O'smirlik davrida hayot mazmunini anglab yetish darajasi

	Past daraja	O'rta daraja	Yuqori daraja
6-sinf o'quvchilari	86,4%	13,6%	-
8-sinf o'quvchilari	76,2%	20,4%	3,4%



2-rasm. Hayotiy mazmuni o'smirlik davrida namoyon bo'lishi

Metodika natijalariga ko'ra, har ikkala o'smirlar guruhida ham hayotiy maqsadlarning past daraja ekanligi aniqlandi. Bu ko'rsatkichlar foiz ko'rinishida berilgan bo'lib, 6-sinf o'quvchilarida 86.4%ni va 8-sinf o'quvchilarida esa 76.2% ni tashkil etadi. O'smirlarda kelajak hayoti to'grisidagi qarashlar, kelajakda maqsadning borligi, hayotga bo'lgan qiziqish, hayotdan mamnun bo'lish, hayot maqsadlarining mazmunliligi, o'zini faol va kuchli shaxs sifatida ko'ra olish, qarorlarni o'zi qabul qila olishi va o'z hayotini nazorat qila olishi past darajada shakllangan. Afsuski, sinalluvchilarimizning katta qismida kelajakka nisbatan aniq maqsadning yo'qligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Формирование личности в переходный период от подросткового к юношескому возрасту: ред. И.В.Дубровина. –М.: Педагогика, 1987. -173 ст.
2. Т.Л.Крюкова “Возрастные и кросскультурные различия в стратегиях совладающего поведения”. Психологический журнал.-2005. Т. 26. №2. ст. 5-15
3. И.В.Дубровиной. “Особенности обучения и психического развития школьников 13-17 лет” под ред. И.В.Дубровиной. –М.: Педагогика, 1988. -234 ст.